

 Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzARB muammolari

2/S-son (4-jild)

**2024**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

***№ S/2 (4) – 2024***

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2024**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### **07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:**

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймакамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

### **08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:**

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўкташович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Сайдалохонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Кулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### **09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:**

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Файбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Сайдова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, "Tashkent International University of Education" халқаро университети;

Хошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукахаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### **10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёрова – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Файбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салаҳутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович - филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдулаевич - филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдов Улугбек Арипович - филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

#### **12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:**

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Ҳуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Файбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амирорев Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судъялар олий кенгаши хузуридаги Судъялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

#### **13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:**

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Ҳавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна - педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Қаюмова Насиба Ашурновна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохида Зайневна - педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибраҳимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баҳодировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна - педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

#### **19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна - психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

#### 22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;  
Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

#### 23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;  
Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

---

### ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Махкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

---

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари**” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” маъсулияти чекланган жамияти

#### Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**  
(99) 602-09-84 (telegram).

## **07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ**

Половонов Козимбек	
ЎЗБЕКИСТОННИНГ ЖАНУБИЙ ШАҲАРЛАРИ ТОПОНИМИГА ОИД	
МАЪЛУМОТЛАР .....	10-15
<i>Xadjamuratova Matlyuba</i>	
МАКТАВГАЧА TA'LIMDA BOLALARNI IJTIMOIY HIMOYA QILISHGA INNOVATSION	
YONDOSHUVNING DOLZARBLIGI .....	16-21
Шовкатов Шокир Шовкат ўғли	
АБУЛ-ЮСР ПАЗДАВИЙ ИЛМИЙ МЕРОСИНИ ЎРГАНИШДАГИ ЁНДАШУВЛАР .....	22-31
<i>Mo'minov Xusanboy Madaminjonovich, Qodirjonov Omadjon Tavakkaljon o'g'li</i>	
О'zbekiston RESPUBLIKASIDA SUD QONUNCHILIGIGA KIRITILGAN O'ZGARISHLAR VA	
ULARNING AHAMIYATI .....	32-36

Пардаев Асрор	
ҚАШҚАДАРЁ ВИЛОЯТИ АҲОЛИСИНИ ХАЛҚ ИСТЕМОЛИ ВА ОЗИҚ-ОВҚАТ	
МАҲСУЛОТЛАРИ БИЛАН ТАЪМИНЛАШ МАСАЛАЛАРИ .....	37-42

## **08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ**

Умурзақова Мўътабархон Нодир қизи	
ЖАҲОНДАТИББИЙ СУҒУРТА ТИЗИМИНИНГ РИВОЖЛАНИШ ХУСУСИЯТЛАРИ .....	43-52

Рахманов Зафар	
ТИЖОРАТ БАНКЛАРИДА ДЕПОЗИТ ОПЕРАЦИЯЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШ	
ТЕНДЕНЦИЯЛАРИНИ БАҲОЛАШ .....	53-62

Аминов Фазлитдин Баҳадирович	
РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ СЕМЕЙНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В ЭКОНОМИКЕ	
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН .....	63-70

Курбонова Шаҳриноз Авазхоновна	
ИҚТИСОДИЁТНИ ДИВЕРСИФИКАЦИЯЛАШ ЖАРАЁНЛАРИДА АСОСИЙ ВОСИТАЛАР	
ТАҲЛИЛИНИ ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ .....	71-81

<i>Azimova Hulkar Egamberdiyevna</i>	
KREDIT PORTFELINI SAMARALI BOSHQARISHDA TIJORAT BANKLARINING O'RNI .....	82-87

Rajabov Orzujon Mamasoliyevich	
LOGISTIKA XIZMATLARINI KO'RSATISHDA BUYUMLAR INTERNETI (INTERNET OF	
THINGS) DAN FOYDALANISH .....	88-93

Сайдов Сарвар Хайруллоевич	
ДАВЛАТ ХИЗМАТЧИЛАРИДА БОШҚАРУВ КОМПЕТЕНЦИЯЛАРИНИ ШАКЛАНТИРИШ	
БОРАСИДА ХОРИЖ ТАЖРИБАСИ .....	94-104

Сержанов Аймурат Медетбаевич	
ХАЛҚАРО АМАЛИЁТ ВА ЎЗБЕКИСТОНДА РАҶАМЛИ БАНКЛАР ХИЗМАТЛАРИНИ ЯРАТИШ	
ЗАРУРИЯТИ .....	105111

Туробов Шерзод Алишерович, Ибодуллаев Зафар Ибодуллаевич	
ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ ФАОЛИЯТИНИ ТАРТИБГА СОЛИШНИНГ ХОРИЖ	
ТАЖРИБАСИ .....	112-119

<i>Daniyarova Feruza Baxriddinovna, Chinorova Shahodat Mansur qizi</i>	
O'zbekiston IQTISODIYOTIGA XORJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH	
YO'LLARI .....	120-126

<i>Temirova Feruza Sagdullayevna</i>	
XULQ-ATVOR IQTISODIYOTI VA BRENDGA SODIQLIK .....	127-132
<i>Sharipova Shaxzoda Xasanovna</i>	
YANGI O'ZBEKISTONDA TURIZM MADANIYATINI YUKSALTIRISH ISTIQBOLLARI ..... 133-138	
<b>09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ</b>	
<i>Алимова Шахноза Хамидовна</i>	
НОГИРОНЛИГИ БОР ЁШЛАР - АЛОҲИДА ХУСУСИЯТГА ЭГА ИЖТИМОЙ-ДЕМОГРАФИК ГУРУХ СИФАТИДА .....	139-147
<i>Asrakulova Adiba Nabieva</i>	
“ЁШЛАР ВА БИЗНЕСНИ ҚЎЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШ ЙИЛИ” НИНГ ҚАБУЛ ҚИЛИНИШИ ТАДБИРКОРЛАРНИНГ ИҚТИСОДИЙ ТАФАККУРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ АҲАМИЯТИ .....	148-154
<b>10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ</b>	
<i>Teshabayeva Dilfuza Muminovna</i>	
LEXICAL PROBLEMS OF TRANSLATING THE NAMES OF NEW PHENOMENA IN MASS MEDIA .....	155-160
<i>Rustamov Ilxom Tursunovich, Inog'omjonova Robiya Rustamjon qizi</i>	
INTERFERENSIYA HODISASINING TILDA AKS ETISHI XUSUSIDA OLIMLARNING TADQIQOTLARI VA QARASHLARI .....	161-165
<i>Abdikhamidova Sevinch Obidjon kizi</i>	
PROBLEMS FACED IN TRANSLATING PROPER NOUNS .....	166-170
<i>Djurakulova Elmira Suyunova</i>	
SHOYIM BO'TAYEV ROMANLARIDA BADIY XRONOTOP VA MIFOLOGIK TALQIN ..... 171-177	
<i>Dalieva Madina Khabibullaevna</i>	
THE ROLE OF BLENDING THEORY IN POLYSEMY AND METAPHOR .....	178-183
<i>Жўраева Ирода Ахмедовна</i>	
ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК АНТРОПОНИМИК ЛУФАТЛАР ТИПОЛОГИЯСИ .....	184-189
<i>Iminova Shahnoza-Begim Bahodirovna</i>	
INGLIZ TILIDA INSONNING IJOBIY AQLIY XUSUSIYATLARINING IFODALOVCHI BIRLIKLARNING KONSEPTUAL, LINGVO-MADANIY XUSUSIYATLARI .....	190-193
<i>Irgasheva Shoxida Sadriddinovna</i>	
INTERNET DISKURSIDAGI IQTISODIY NEOLOGIZMLARNI TARJIMA QILISH XUSUSIYATLARI .....	194-200
<i>Tursunova Zarina Farxodovna</i>	
LINGVISTIKADA EMOTLARNI O'RGANISHGA ZAMONAVIY YUNDASHULAR (INGLIZ TILI ASOSIDA).....	201-205
<i>Satibaldiyev Erkinjon Kamilovich</i>	
PARADIGMATIC SOUND INTERFERENCE IN THE ENGLISH SPEECH OF TURKOPHONES .....	206-212
<i>Radjabova Hafiza Shukrulloyevna</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TERMINOLOGIYASINING METODOLOGIK ASOSLARI .....	213-220
<i>Avezova Dilovar Salimovna</i>	
TAXALLUSLARNI O'RGANISHNING NAZARIY JIHATI .....	221-225

<i>Alikberova Kamila Adhamovna</i>	
A CRITICAL ANALYSIS OF LANGUAGE USE AND LANGUAGE ACQUISITION .....	226-232
<i>Rakhmatova Bahara Ibodulla qizi</i>	
THE ROLE OF LEGAL DISCOURSE IN MODERN LINGUISTICS .....	233-238
<i>Valieva Nargizakhon Zamir kizi</i>	
COMPARATIVE ANALYSIS OF “KITE RUNNER” AND “A THOUSAND SPLENDID SUNS” BY KHALED HOSSEINI: THEMES, CHARACTERS, AND SOCIOPOLITICAL CONTEXT .....	239-244
<i>Mamatqulova Zilola Rejabaliyevna</i>	
RISHTON KULOLCHILIK MAKTABI KASB-HUNAR LEKSIKASINING STUKTURAL TASNIFI .....	245-251
<i>Alimova Kamola Tursunovna</i>	
CHALLENGES IN PREPARATION OF GUIDE TRANSLATORS .....	252-258
<i>Сейтимбетова Айкумар Пулатбаевна</i>	
ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В АНГЛИЙСКОМ, РУССКОМ И КАРАКАЛПАКСКОМ ЯЗЫКАХ.....	259-264
<i>Бегжанова Айсалиу Махмудовна</i>	
ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДА КОМПЬЮТЕР ЛИНГВИСТИКАСИ ТЕРМИНЛАР ТИЗИМИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ .....	265-270
<i>Kubanova Ilmira Sharifovna</i>	
EXPLORING ABBREVIATED RAILWAY TERMINOLOGY IN ENGLISH: A COMPREHENSIVE ANALYSIS .....	271-275
<i>Azamjonova Sarvinoz</i>	
USE OF TOPONYMS IN MODERN FRENCH MEDIA .....	276-282
<b>12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР</b>	
<i>Muxiddinova Dildora Muxiddinovna</i>	
O'ZBEKİSTONNING BOJXONA FAOLIYATIGA KİOTO KONVENSIYASINI JORİY ETİŞHNİNG HUQUQIY JİHATLARI VA JSTGA A'ZOLIKNING TA'SIRI .....	283-292
<i>Asadov Eldorjon Nizomiddin o'g'li</i>	
SOLIQ NAZORATI HUQUQIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH DAVLAT MOLİYAVİY NAZORATI INSTITUTİNİN MUHİM OMİLİ .....	293-298
<i>Mustanov Ilxom Abdıvalijonovich</i>	
BANK QONUNCHILIGINI BUZGANLIK UCHUN JAVOBGARLIKNING NAZARIY-HUQUQIY JİHATLARI .....	299-304
<i>G'oyibov Jo'rabet Choriyevich</i>	
YOSHLAR MIGRATSİYASI: MUAMMO VA YUTUQLAR TAHЛИLI .....	305-309
<b>13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ</b>	
<i>Kuziyev Otobek Chuliyevich</i>	
TALABALARDA AXBOROT MODELLASHTIRISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISHNING MUHİM UCH BOSQICHI .....	310-314
<i>Fattaxova Diloram</i>	
TIL O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN KOMPYUTER METODLARI .....	315-321
<i>Moydinova Elmira</i>	
APPLICATION OF FLIPPED LEARNING METHODS IN THE UNIVERSITY	

CLASSROOM .....	322-326
<i>Xodiyeva Gulhayo Hasan qizi</i>	
ZAMONAVIY BOSHLANG'ICH TA'LIMDA 4K MODELI KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHGA INTEGRATIV YONDASHUVNING MOHIYATI .....	327-333
<i>Doniyorova Gulrux Shoniyozovna</i>	
AVTOMOBILSOZLIK YO'NALISHI TALABALARINING KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA DASTURIY VOSITALARNING AHAMIYATI .....	334-338
<i>Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna</i>	
RIVOJLANTIRUVCHI TA'LIMINING ASOSIY NAZARIYALARIDA TA'LIM OLUVCHINING ANALITIK QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI .....	339-344
<i>Xo'jamberdiyeva Dilfuzা Ikramovna</i>	
DARSLIK BILAN ISHLASH O'QUVCHILARNING AXBOROT KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH VOSITASI SIFATIDA .....	345-351
<i>Mamaraimov Bekzod Qodirovich</i>	
O'QUVCHILARNING TADQIQOTCHILIK KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH VA ULARNING QIDIRUV FAOLIYATIGA TAYYORLIGI .....	352-356
<i>Xudayberdiev Nurislam Nuralievich</i>	
BO'LAJAK O'QITUVCHILARING RAQAMLI KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHNING TASHKILIY-PEDAGOGIK MEXANIZMI .....	357-363
<i>Qarshiyev Jamshid Murotaliyevich</i>	
TALABALARINING O'QUV FAOLIYATI VA ILMIY IZLANISHLARIDA SUN'IY INTELLEKT: IMKONIYAT VA CHEGARALAR .....	364-369
<i>Teshaboyeva Shahodat</i>	
ZAMONAVIY SHAROITDA SHAXSNING KASBIY HUQUQIY MADANIYATI .....	370-375
<i>To'rayeva Dilnoza Ismoilovna</i>	
RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA BO'LAJAK O'QITUVCHINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH USLUBIY TAYYORGARLIKNING BIR QISMI SIFATIDA .....	376-380
<i>Beknayeva Shaxnoza Vladimirovna</i>	
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKIOTLARIDA INSON RESURSLARINI BOSHQARISHDA INNOVATSION JARAYONLAR .....	381-388
<i>Dusyarov Salimjon Xudaymuratovich</i>	
HARAKATLI O'YINLAR ASOSIDA MAKTAB O'QUVCHILARIDA JISMONIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH .....	389-393

**Sharipova Shaxzoda Xasanovna,**

SamDU mustaqil tadqiqotchisi,

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi assistenti

## **YANGI O'ZBEKISTONDA TURIZM MADANIYATINI YUKSALTIRISH ISTIQBOLLARI**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada yangi O'zbekistonda turizm va uning rivojlanishi, yaqin yillardagi istiqbolli rejalar hamda chekka hududlardagi ziyorat turizmiga oid yangi obeklarni ishga tushurish borasidagi salmoqli ishlar borasida so'z yuritilan.

**Kalit so'zlar:** turizim, transport, logistika, investitsiya, qadriyatlar, turizm madaniyati, xizmatlar sohasi, hostel, mehmon uylari.

---

**Sharipova Shakhzoda Khasanovna,**

Independent researcher at SamDU,

Uzbek-Finland Pedagogical Institute

Assistant at the Department of Social Sciences and Humanities

## **PROSPECTS FOR INCREASING TOURISM CULTURE IN NEW UZBEKISTAN**

**Abstract.** This article talks about tourism and its development in the new Uzbekistan, promising plans for the next few years, and significant work on launching new facilities for pilgrimage tourism in remote areas.

**Key words:** tourism, transport, logistics, investment, values, tourism culture, service sector, hostel, guest houses.

---

**Шарипова Шахзода Хасановна,**  
независимый исследователь СамДУ,  
Узбекско-Финляндский педагогический институт  
Ассистент кафедры социально-гуманитарных наук

## **ПЕРСПЕКТИВЫ ПОВЫШЕНИЯ КУЛЬТУРЫ ТУРИЗМА В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ**

**Аннотация.** В данной статье рассказывается о туризме и его развитии в новом Узбекистане, перспективных планах на ближайшие несколько лет и значительной работе по запуску новых объектов паломнического туризма в отдаленных районах.

**Ключевые слова:** туризм, транспорт, логистика, инвестиции, ценности, туристическая культура, сфера услуг, общежитие, гостевые дома.

---

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI2Y2024N17>

**Kirish.** O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida tub islohotlar olib borilmoqda. Jumladan, turizmni rivojlantirishga ham Davlat tomonidan katta ahmiyat berilmoqda. Turizm sohasini tashkil etuvchi asosiy infratuzilmalar: joylashtirish vositalari, umumiyl ovqatlanish xizmati va transport xizmati

hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, turizm sohasini rivojlantirishda transport xizmatlari asosiy o’rin egallaydi. Transport xizmatlarining rivojlanishi va takomillashtib borishi sayyoohlar uchun qulayliklar yaratib, ularning sayohatlarini yengillashtiradi. Bu orqali turizmning mamlakatda taraqqiy etishiga erishish mumkin. Hozirda O’zbekistonda zamonaviy turizm infrastrukturasini rivojlantirish masalasiga katta e’tibor qaratilmoqda. Prezidentimiz SH.M.Mirziyoev ta’kidlaganlaridek: “Turizmni iqtisodiyotning strategik tarmog’iga aylantirish biz uchun ustuvor vazifa bo’lib qoladi”[1]. Shunday ekan O’zbekistonda turizm sohasini jadal rivojlantirish ham iqtisodiy, ham ijtimoiy ahamiyatga ega bo’lgan muhim strategik vazifalardan biri hisoblanadi. Bu borada O’zbekistonda turizm sohasini jadal rivojlantirish maqsadida 2019 yil 13 avgustdagi PF-5781-son “O’zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”, 2021 yil 9 fevraldagagi PF-6165-son “O’zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi Qarorlari qabul qilingan.[2]. Avvalambor turizm sohasini rivojlantirishning muhim omili – bu ushbu sohaga investitsiyalarni keng jalb qilishdir. Bugungi kunda O’zbekistonda ichki va tashqi turizmni rivojlantirish uchun zarur infrastrukturani shakllantirish masalasiga katta e’tibor qaratilib, Respublikamizda 20 dan ziyod turistik yo’nalishlar chet ellik turistlarni o’ziga jalb etib kelmoqda. O’zbekistonga 2016 yilda 1 million 300 ming, 2017 yilda qariyb 2 million 700 ming, 2018 yilda 5 million 346 ming 200 kishi, 2019 yilda 6 million 748 ming 500 kishidan iborat turistlar kelib, 2020 yilda ularning sonini 7,5 millionga, 2023 yilda 10 million kishiga etkazish mo’ljallandi.

O’tgan qisqa davr mobaynida O’zbekiston turizm salohiyatini kompleks rivojlantirishga qaratilgan 16 normativ huquqiy hujjat qabul qilindi. Ushbu hujjatlat asosida turizm sohasi subeklariga sezilarli soliq va bojxona imtiyozlari hamda boshqa imtiyozlari hamda boshqa yengilliklar taqdim etildi. Rasmiy ma’lumotlarga ko’ra, 2019 yilda «turizmda ko’rsatilgan xizmatlar global yalpi ichki mahsulotning 10,3 % ni tashkil etib, 8,9 trln. AQSH dollariga yetgan, shuningdek sohada bevosita va bilvosita 330 mln. kishi band bo’lib, 10 ish o’rnidan bittasi turizmga tegishli».1 Shu bois ko’p mamlakatlarda turizm sohasini davlat tomonidan tartibga solish jadal sur’atlar bilan qo’llab-quvvatlashga alohida e’tibor qaratmoqda.

**Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.** Bugunda Vatanimiz tarixi jumladan, turizm sohasidagi muvavvaqiyatli islohotlar tarixini, iqtisodiyotni jadal sur’atlar bilan taraqqiy ettirishga va bu dolzarb muammoni amalda hal etishda qaratilgan turistik birlashmalar faoliyatini, jumladan viloyatlar miqiyosida o’rganish va tadqiqot qilish dolzarb vazifalardan biri sanaladi. Turizm sohasini rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari keyingi yillarda keng ko’lamda tadqiq qilinmoqda. Uning muhim jihatlari mamlakatimiz va xorijlik olimlar va mutaxassis tadqiqotchilar tomonidan faol o’rganilmoqda Respublikamiz tarixchi va iqtisodchi olimlaridan M.T.Alimova, N.Tuxliyev, Tolibova S.R. Q.X.Abduraxmonov, M.E.Po’latov, Q.J.Mirzayev, B.N.Navruzzoda, B.Sh. Safarov va boshqalarning tadqiqotlari va ilmiy asarlarida turizmga oid muhim masalalar tadqiq etilgan. Yuqorida nomlari ko’rsatilgan adabiyotlarda turizm sohasini rivojlantirishning nazariy va uslubiy jihatlari ochib berilgan. Ammo, turizmning rivojlanishi va viloyat turizm boshqarmalarining faoliyati tarixi va ularning istiqbolini takomillashtirish bilan bog’liq muhim muammolarning aksariyati hali to’liq ochib yoritilmagan.

Turizmni mamlakat milliy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda viloyat turizm boshqarmalarining ish faoliyatidagi muammolarni hal etish, turizmning yangi yo`nalishlarni izlab toppish masalalari tadqiqot qilinmagan. Muammolarning nazariy va metodik jihatlarini hal qilish zarurati dissertatsiya ishi mavzusiuning maqsadi, vazifalari va predmetining dolzarbligini belgilaydi. Yangi O`zbekistonni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng ko`lamli islohotlar negizida turizm sohasini yanada rivojlantirish, uni milliy iqtisodiyot taraqqiyotining yuqori darajasiga aylantirish siyosatini olib bormoqda. Sababi, O`zbekistonda ulkan turistik salohiyat mavjud bo`lib, hozirgi kunda undan foydalanish samaradorligi hali juda past. Demak, asrlar davomida avlodajdodlarimizning mashaqqatli mehnati evaziga to`plangan va biz uchun o`tmishdan meros bo`lib qolgan katta boylikdan o`rinli foydalanish, uni mamlakatda kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning yetakchi omiliga aylantirish asosida mavjud imkoniyatlarni ro`yobga chiqarish muammosi hal qilinadi. Hukumatimiz mustaqilligimizning ilk kunlaridan boshlab turizmni yanada rivojlantirish bo`yicha qator chora - tadbirlarni ishlab chiqdi va amalga oshirishga harakat qildi. Ayniqsa, Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev rahnamoligida O`zbekistonda turizmni yanada rivojlantirish, mavjud imkoniyatlardan unumli foydalanish borasida amalga oshirilayotgan keng ko`lamli choratadbirlar bugun o`z samarasini bermoqda. Davlatimiz rahbarining 2016 yil 2 dekabridagi “O`zbekiston Respublikasining turizm sohasini yanada rivojlantirishni ta`minlash choratadbirlari to`g`risida”gi farmoni, 2017 yil 16 avgustdagи “2018-2019 yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo`yicha birinchi navbatdagi choratadbirlar to`g`risida”gi qarori, 2022-2026 yillarda O`zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustivor yo`nalishi bo`yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalar bu borada muhim qadam bo`ldi.

**Tadqiqot metodlari.** Tadqiqotda turizm iqtisodiyoti bo`yicha mavjud nazariyalar o`rganildi va mamlakatimizdagi uning rivojlanish jarayonlari tahlil qilindi. Tizimli tahlil qilishda 2019-2021 yillardagi statistik ma`lumotlar qo`llanildi. Statistik manba sifatida, O`zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo`mitasining ma`lumotlaridan keng foydalanildi. Bundan tashqari manbalarni ichki va tashqi jihatdan tahlil etish, tizimlashtirish, qiyosiy tahlil, muammoiy - davriy yondashish, paleografiya tahlili usullaridan foydalanilgan.

**Tahlil va natijalar.** O`zbekiston tarixida turizm sohasida sobiq sovet davlati davrida ham, undan keyin mustaqillikning dastlabki bosqichlarida ham turizm sohasida bunday keskin ijobjiy o`zgarishlar bo`lmaganligini alohida ta`kidlash kerak. Shu bilan birga, alohida ta`kidlash lozimki, mamlakatimizga tashrif buyuruvchi turistlarning sonini ko`paytirish uchun ularning soniga teng miqdorda investitsiyalarni jalb etish, otel, motel, xostellarning sonini ko`paytirish muhim hisoblanadi. Shu bilan birga, XXI asr boshiga kelib, sayyoqlik xizmat turlari, uning harajatlari, turistik bozorning holati hamda unga nisbatan bozor qonuniyatlarini keng tadbiq etish va mahsulotini haridorgir bo`lishi kabi masalalar ijtimoiy gumanitar fanlar, xususan, tarix fani vakillarida ham o`rganishga qiziqish ortib borayotganini kuzatish mumkin. Binobarin, dissertatsiyamizda O`zbekiston va ASEAN davlatlari misolida sayyoqlik aloqalarining yanada rivojlantirish istiqbollarini tahlil etish bosh ham vazifa qilib olingan va o`rganilgan. [3; 11-15]

Hozirgi muhitda Turistik mahsulot va uning turlari respublikamiz xizmatlar bozorida ham o`z mavqeini mustahkamlab borayotganligini ko`rish mumkin. Ma`lumki, O`zbekiston ulkan turistik salohiyatga ega bo`lgan davlat hisoblanadi. Shuni hisobga olgan holda, O`zbekiston Respublikasining tashqi siyosat va xalqaro iqtisodiy-madaniy munosabatlar strategiyasida ham turizmning iqtisodiy moliviy va madaniy-ma`rifiy salohiyatidan unumli

foydalinish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Zero, turizmning- millatlararo aloqalarni kengaytirish va mustahkamlash hamda xalqaro sayyohlik bozoriga uzviy q'shilish, O'zbekistonning madaniy-tarixiy va ma'naviy merosini jahon hamjamiyatida targ'ib qilishda o'rni va ro`li yuqoridir.[4; 224]

1990-yillar oxirida Yevropa Komissiyasi tomonidan o'tkazilgan tahlilga ko'ra, madaniyat turistlarning 60 % uchun sayyohat qilishga undovchi asosiy sabab sifatida ko'rsatilgan. Shuni e'tiborga olib, Butunjahon sayyohlik tashkiloti Bosh Assambleyasining 12-chi sessiyasida "Yangi ming yillik uchun butunjahon madaniy merosini saqlash" zarurligi haqida qaror qabul qildi.1 Darhaqiqat, Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Termiz, Qo'qon kabi tarixiy obidalarga boy shaharlar ya'ni "Ochiq osmon ostidagi muzey"lar butun dunyoga mashhur. O'zbekiston katta tarixiy-madaniy merosga – 7 ming 330 dan ortiq tarixiy-me'moriy va arxeologik obidalarga ega bo'lib, tarixiy obidalarning 140 tasi YUNESKO tomonidan muhofaza etiladigan tarixiy yodgorliklar sirasiga kiritilgan. Shuningdek, O'zbekiston noyob tabiat yodgorliklari, jumladan, 400 dan ortiq noyob tabiat yodgorliklari, tog'li hududlarda 400 dan ortiq g'orlar, 500 dan ortiq ko'llar, shuningdek, daryolar, sharsharalar mavjud.2 Bularning barchasi an'anaviy turizm bilan birga alternativ (ekoturizm, etnoturizm va hokazo) sayyohlik turlari birga olib borish hamda xalqaro miqyosda sayyohlarni o'ziga jalb etish borasida O'zbekistonning turistik salohiyati ortib borishi uchun zamin hisoblanadi.

"O'zbekturizm" milliy kompaniyasidan olingan ma'lumotlar asosida ko'rsatilgan. Haqiqatan ham, mustaqillikning ilk davridan O'zbekistonda jahon turizm bozoriga faol kirib borish uchun sharoit yaratilishi ijobiy samarasini berdi. Jumladan, ayrim mahalliy mutaxassislarning bergen ma'lumotlariga qaraganda, "...sobiq Ittifoq davrida, ya'ni 1987 yilda O'zbekistonga 210 mingga yaqin xorijlik turistlar kelgan bo'lsa, 2010 yilda ularning soni 1,3 mln. kishini tashkil etdi". 2017 yil ma'lumotlariga qaraganda, O'zbekistonga bir yilda kelayotgan sayyohlarning soni 2,5 mln. atrofida va ularning soni bir yilda 80-100 mingtaga ko'payib borayotgani qayd etilgan.

Qabul qilingan me'yoriy hujjatlarning maqsadi turizm sohasidagi munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solish, turistik xizmatlar bozorini rivojlantirish, shuningdek sayyohlar va turistik faoliyat sub'ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan iborat. Sayyohlik sohasi infratuzilmasini rivojlantirish borasida ham O'zbekistonda qator e'tirofga molik ishlarni ham alohida qayd etish lozimdir. Xususan, turizmni rivojlantirish sohasiga xorijiy kreditlar va investitsiyalarni jalb etish, xorijiy mamlakatlar, shuningdek, xorijiy kompaniyalar bilan uzoq muddatli hamkorlikni yo'lga qo'yishga qaratilgan dasturlar, turizm sohasi uchun kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish choratadbirlari kompleksini amalga oshirish, turizm tarmoq fanini rivojlantirishga ko'maklashishga qaratilgan keng qamrovli ishlarni amalga oshirildi.

Xususan, shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga muvofiq ayrim xizmat ko'rsatish servislari, jumladan, Samarqand shahridagi "Afrosiyob", Buxoro shahridagi "Buxoro" mehmon-xonalari, Germanianing "Inpro Hotels" va "Shtainberg rezervaition cervis" firmalariga har yili foyda hisobidan 500 ming dollar davlat hisobiga to'lashi sharti bilan foydalinish uchun berildi.2 Dunyo turizm bozorida taniqli "Radisson Blu Hotel", "Dedeman Silk Road Tashkent", "Lotte City Hotel Tashkent Palace" kabi mehmonxonalar faoliyati yo'lga qo'yildi. 2015 yildan "Hayat", "Hilton" mehmonxona tarmoqlari bilan hamkorlik o'rnatildi. Shu bilan birga, «O'zbekiston havo yo'llari» milliy aviyakompaniyasi, O'zbekiston

temir yo'llari» davlat-aksionerlik kompaniyasi, Davlat soliq qo'mitasi hamda boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda sayyoohlarga sifatli transport va servis xizmatlarini tashkil etish bo'yicha uzoq yillarga mo'ljallangan kompleks dastur ishlab chiqildi va joriy etildi. Xususan, "O'zbekiston havo yo'llari" milliy aviakompaniyasi uchun "Boing-757", "Boing-767", "Aerobus A-320" kabi tayyoralar davlat ko'magida sotib olindi. Hozirgi kunda ular yevropa, Osiyo, Yaqin Sharq va Amerikadagi 40 dan ortiq shaharlar yo'nalishlarida xizmat qilmoqda. Shuningdek, O'zbekistonning 11 ta aeroport xalqaro maqomga ega bo'ldi.

"Talgo" ispan kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan yuqori tezlikda yuruvchi poyezdlar Toshkent-Samarqand-Toshkent yo'nalishida sayyoohlarga xizmat ko'rsatish darajasini oshirdi. O'zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan 1995 yildan buyon "Ipak yo'lida turizm" nomli Toshkent xalqaro turistik ko'rgazmasi (TXTK) muntazam ravishda o'tkazib kelinmoqda. Ushbu tadbir xalqaro ko'rgazmalar orasida ilg'or tadbir darajasida baholanib, BMTning Butunjahon sayyoohlilik tashkiloti tomonidan e'tirof etildi. Ko'rgazmada oxirgi yillarda 25-30 mamlakatdan yuzga yaqin turistik kompaniya ishtirok etmoqda. Shuningdek, 2013 yildan boshlab O'zbekistonning milliy merosini jahon miqyosida targ'ib etish, xorijiy sayyoohlolar oqimini jalb qilish maqsadida har yili bahorda yangi xalqaro tadbir – "Dam olish dunyosi" O'zbek xalqaro turistik ko'rgazmasi yo'lga qo'yildi. O'z navbatida, O'zbekistonning muhim xalqaro turistik ko'rgazmalarda ham faol ishtiroki sezilarli darajada o'sib bormoqda.

**Xulosa va takliflar.** Tarixiy-madaniy turizm obidalaridan samarali foydalanish imkoniyatlarini tadqiq etishda, ulardan samarali foydalanish oshirish yo'llari, ularga ta'sir etuvchi omillar va ularni aniqlash, hamda turistik resurslardan foydalanish imkoniyatlarini baholashda **resurslarni** guruhlarga ajratish hamda ularni saqlash, qayta tiklash daoliyatining indikativ ko'rsatkichlarini aniqlash aniqlash zarur. Sohaning iqtisodiy samaradorligini oshirishning nazariy va amaliy jihatdan o'rGANISH natijasida quyidagi xulosalarga kelindi va tavsiyalar ishlab chiqildi:

- muzeylar va madaniy meros obyektlariga sifatli va namunali xizmat ko'rsatishni takomillashtirish va bu orqali ularning obro'sini mustahkamlash;
- mamlakatning tarixiy merosini jahon turistik bozorida namoyish etishda xalqaro ko'rgazma, konferensiya, festival kabi madaniy tadbirlarni tashkil etish;
- arxeologik yodgorliklarning tarixiy madaniy turizm sohasidagi rolini sezilarli darajada oshirish orqali, ularni xorijiy va mahalliy turistlar orasida brend darajasiga yetkazish;
- arxeologik yodgorliklarni qisman (konservatsiya va restavratsiya) qilib muzey ko'rgazmasiga tayyorlash;
- sayyoohlolar uchun xalq amaliy san'ati markazlarida mahorat darslarini tashkil etishni yo'lga qo'yish bilan milliy hunarmandchilik an'analarini dunyoga tanitish;
- xorijiy turistlarni tarixiy-madaniy obyektlarga tashrifini oshirishda. Malakali mutaxassislar tomonidan ekskursiya xizmatlarini sifatli tashkil etish;
- tarixiy madaniy turizmga oid turistik axborot markazlari faoliyatini rag'batlanirishda ilmiy-ommabop ma'lumotlarni radio, teleko'rsatuv hamda internet tarmoqlaridan keng foydalanishni yo'lga qo'yish.

Yuqoridagilardan umumiyl xulosa qilib, tarixiy-madaniy turizmni rivojlantirish nafaqat, madaniy sohani qo'llab-quvvatlashga ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni oshirish imkoniyatini taqdim eta oladigan sohalardan biri sifatida qarash kerak bo'ladi.

**Литература/Адабиётлар/References:**

1. O'zbekiston Respublikasining "Turizm, sport va madaniy meros sohalarida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida" gi PF-6199-farmoni. 2021 yil 6-aprel. //www.lex.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Buxoro, Samarqand, Xiva va Shahrisabz shaharlarida xavfsiz turizmni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 939-son qarori. 23.11.2017 yil// <https://www.norma.uz>
3. Ван Циншен, Историко-культурный туризм и развитие туристических городов Культура народов Причерноморья. 2002. №35. С.11-15
4. Дмитриевский Ю.Д. Туристские районы мира. Смоленск, 2000. 224 с.
5. Колотова Е. В. Рекреационное ресурсоведение: Учеб. пособие. - М.: РМАТС. [1, с. 92-93]
6. Карпов Г.А., Хорева Л.В.Экономика и управление туристской деятельностью. СПб., 2011. 268 с. [2.с.135]
7. Королёва Н.В. Имитационное моделирование направлений развития туризма в рекреационных зонах региона. Майкоп, 2007. 164 с.
8. Richards, G. (1996) Cultural Tourism in Europe. CABI, Wallingford. [1, с. 45]
9. Ro'ziyev Sh. "O'zbekistonda tarixiy-madaniy turizmni rivojlantirishning tashkiliyiqtisodiy mexanizmini indikativ boshqarish metodikasi" J. Экономика и финансы. <https://cyberleninka.ru/>
10. Тухлиев Н., Таксанов А. Экономика большого туризма. Т.: «Узбекистон миллий энциклопедияси», 2001. — 208с. Стр. 13
11. Норчаев А. Ўзбекистонда covid-19 пандемиясининг туризмга таъсирини юмшатиш йўллари. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 5, 2020.<http://iqtisodiyot.tsue.uz/>
12. Международный туризм сократился в 2020 году до уровня 1990 год. <https://www.interfax.ru/>
13. www.stat.uz - O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi.

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

***Nº S/2 (4) – 2024***

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари” электрон  
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-  
сонли гувоҳнома билан давлат  
рўйхатига олинган.**

**Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
масьулияти чекланган жамияти**

**Таҳририят манзили:**  
100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой  
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-  
уй. Электрон манзил:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)  
**Боғланиш учун телефонлар:**  
(99) 602-09-84 (telegram).